

DAZMOL SO'ZINING ETIMOLOGIYASI VA KELIB CHIQISH TARIXI

Termiz Davlat Universiteti

Filologiya va o'zbek tili fakultet

2- kurs talabalari

Soatova Nilufar Raxmat qizi

Nurmamatov Samandar Ulug'bek o'g'li

Musurmonova Madinabonu Umid qizi

Muhammadiyeva Sadoqat Behzotovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada “dazmol” soʻzining kelib chiqish tarixi va etimologiyasi. Shuningdek ushbu soʻzning turli hududlarda ,har xil nomlar bilan atalishi haqida qiziqarli maʼlumotlar keltirib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: dazmol, baxyalar, buyum, etimologik lugʻat, shevalar, oʻzbek adabiy tili, chettan kirib kelgan soʻzlar.

ЭТИМОЛОГИЯ И ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА ДАЗМОЛ

Термезского Государственного Университета

Факультет филологии и узбекского языка

студенты 2 курса

Соатова Нилуфар Рахмат кизи

Нурмаматов Самандара Улугбек угли

Мусурмонова Мадинабону Умид кизи

Мухаммадиева Садокат Бехзотовна

Аннотация В данной статье представлена история и этимология слова «железо», а также приведены интересные сведения о разных названиях этого слова в разных регионах.

Ключевые слова: железо, бахия, предмет, этимологический словарь, диалекты, узбекский литературный язык, иностранные слова.

ETYMOLOGY AND HISTORY OF THE ORIGIN OF THE WORD DAZMOL

Termiz State University

Faculty of philology and uzbek language

2nd year students

Soatova Nilufar Raxmat kizi

Nurmamatov Samandar Ulug'bek o`g`li

Musurmonova Madinabonu Umid kizi

Muhammadiyeva Sadokat Behzotovna

Annotation. In this article, the history and etymology of the word "iron" is presented. Also, interesting information about the different names of this word in different regions is given.

Key words: iron, bahyas, item, etymological dictionary, dialects, Uzbek literary language, foreign words.

Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borgan sari yangidan-yangi kashfiyotlar yaratilmoqda .Bugungi kunda kundalik turmushimizda o`zining o`rniga ega bo`lgan buyum haqida hikoya qilamiz .To`g`ri bu buyum eshitalishidan

oddiy bo'lishi mumkin lekin uzoq tarixga ega. Hozirgi kunda esa bu buyumsiz kundalik hayotimizni tasavvur qilish sal mushkulroq. Har bir xonadondan bemalol topa olamiz desam mubolag'a bo'lmaydi. Dazmol-bu kiyimlarni tekis va chiroyli ko'rsatuvchi, sifatini uzoq muddat yaxshi saqlashga yordam beruvchi buyum. Dazmol bizga oldindan "Utuk" so'zi bilan tanilib kelgan va hozir ham bu so'zdan foydalaniladi. "Devoni lug'atit turkda" bu so'zga juda yaxshi ta'rif bergan "oto'k" –andavaga o'xshash temir asbob bo'lib uni qizdiradilar va kiyimning chok hamda baxyalarini va tuklarini bostirib silliqlaydilar. Shuningdek qadimda "utuklamoq" ma'nosida "o'tidi" fe'li ham ishlatilgan. "Utuk" so'zining kelib chiqishi haqida gap ketganda ba'zan:

"utuk"- "o't" (olov) va "yuk" so'zlari qo'shilishidan yasalgan, uning ichiga o't solingani (yuklangani) uchun shunday atalgan, degan qarashlar bo'lgan. Bu fikrning noto'g'riligini "Devoni lug'atit turk" da "o't" va "utuk" so'zlarining yozilishidagi farqdan ham ko'rish mumkin. Xususan, "Devonda" o't so'zi (o:t) shaklida yozilgan ya'ni "o" tovushi cho'ziqroq, "oto'k" va "o'tidi" so'zlari boshidagi "u" tovushi esa qisqa va yumshoqroq. Ehtimol, bu ikki so'z ("o:t" va "o't") qachonlardir bir no'zakdan o'sib chiqqan bo'lishi mumkin, chunki qadimda "o't"-fe'li "silliqlamoq", "olovda kuydirib tekislamoq" ma'nolariga ega bo'lgan.

Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati" ga ham bu so'z "O'tik" shaklida kiritilgan. "O'tik"-dazmol. Bu ot qadimgi turkey tilda "o't" fe'lining "sirpan" ma'nosida (o')k qo'shimchasi bilan yasalgan. Hozir ham aksariyat o'zbek lahjalarida, hududlarida "dazmol" emas "utuk", "utuklamoq" so'zlari ishlatiladi. Masalan, Xozrazmda "uttik" deyiladi. Ba'zi shevalar ta'sirida o'zbek adabiy tilida "dazmol" qabul qilingan. Ammo ko'pchiligimiz hozir ham "utuk" so'zini ishlatib, adabiy tilde gapirganda yoki yozganda "dazmol" so'zini ishlatamiz. "Utyug" turkiy so'z, adabiy tilda "dazmol", "darzmol" (forscha): "darz" (chok) + "molidan" (surtmoq, ishqalamoq), eronliklar turklar singari "utuv" deb atashgan. Hozirda deyarli barcha turkiy xalqlar (turk, ozorboyjon, tatar, boshqird, qisman tojiklar) utukni-"utuk"

deydi va “utuklamoq” fe’lini qo’llaydi. Rus tilida ham bu turkiy so’zdan “утюжить” fe’li yasalgan.

“Dazmol”-so’zining etimologiyasi:

1) Kiyim-kechak, gazlama va shu kabi narsalarni qizdirib tekislash, silliqlash, g’ijimini yozish uchun mo’ljallangan asbob

M: U uning issig’i va dazmolningtaftidan qizib ketgan. Shuhrat “Shinelli yillar”

2) Dazmollash natijasida kiyim –kechak, gazlama va shu kabilarning yuzida hosil bo’lgan sillikdik va tekislik

M: Uning nazarida, Zinatullayevning chiroyli polyak trikosidan tikilgan va haJSH dazmoli buzilmagan kostyumi ham ...uziga ko’p bino qo’yganidan dalolat beradi. P. Qodirov “Uch ildiz”.

Xulosa o’rnida shuni aytib o’tishimiz joizki, yuqorida aytib o’tganimizdek dazmol so’zining lug’aviy manolari va bu so’zning kelib chiqish tarixini ko’rib o’tdik. Adabiy tilimizda “dazmol” deb qo’llaganligimiz bilan ko’p shevalarimizda “utuk” so’zini keng qo’llab kelmoqdamiz. Turkiy tilimizdan olingan bunday so’zlarni kundalik hayotimizda ko’proq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Asl turkiycha so’zlarimizning kelajak avlodlarimizga ham yetib borishi sababchisi o’zimiz bo’lamiz. Shundan kelib chiqqan holda tilimizda kamroq chettan kirib kelgan so’zlardan foydalanish kerak.

REFERENCES

1. M. Koshg’ariyning “Devoni lug’atit turk” asari
2. Sh. Raxmatullayevning “O’zbek tilining etimologik lug’ati”
3. O’zbek tilining izohli lug’ati .5-jild. Toshkent 2020-y.